

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT XIZMAT KO'RSATISH VA SERVIS
KASB – HUNAR KOLLEJI**

ANIQ FANLAR KAFEDRASI

MUALLIF: SH.X. MAVLONOV

USLUBIY QO'LLANMA

Mavzu: **WINDOWS MUHITIDA ISHLASH**

TOSHKENT – 2009

«Информатика фанидан Услубий қўлланма»

(ўқитувчи Мавлонов Ш.Х.) услубий қўлланмасига

Т А Қ Р И З

Информатика фани ва компьютер техникасининг ривожини, тараққиёти кун сайин жадаллик билан ривожланиб бормоқда. Уларни ўқувчиларга етказиш учун педагогдан нафақат билим, балки илғор педагогик маҳоратни ҳам талаб қилади. Хозирги вақтда ўқувчиларнинг мукаммаллаштирилган билимларни ўзлаштиришлари биров қийинчиликни, тушунарсизликларни келтириб чиқаради. Бу эса ўқувчиларнинг билим, кўникма сифат кўрсаткичларининг унмдорлигининг пасайишига олиб келади. Шу нуқтаи назардан ушбу услубий қўлланманинг долзарб масалалардан бири – информатика фанини ўқитишда қўланилиши мумкин бўлган ноъананавий методлар, наъмунавий дарс, илғор педтехнологияларга бағишланганлиги бежис эмас.

Услубий қўлланмада информатика фанини ўқитишда қўланилиши мумкин бўлган ноъананавий методлар, наъмунавий дарс, илғор педтехнологияларни қўллаш ғояси батафсил баён этилиб, дарс режаси, дарснинг технологик ва хронологик харитаси, ноъананавий таълим моделларнинг методлари келтириб ўтилган.

Услубий қўлланма равон тилда, тушунарли тарзда ёзилган, уни услубий қўлланма сифатида чоп этиш мумкин.

Низомий номидаги Тошкент Давлат
педагогика Университети
Академик лицей ва касб-хунар
коллежлари билан ҳамкорлик
ишлари бўйича методист

Насриддинова Г.С.

Тошкент хизмат кўрсатиш ва сервис касб – ҳунар коллежи

Муаллиф: Мавлонов Ш.Х

Такризчи: Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика
Университети Академик лицей ва касб-ҳунар
коллежлари билан ҳамкорлик ишлари бўйича
методист Насриддинова Г.С.

« Аниқ фанлар » кафедрасида кўриб
чиқилди. Баённома № _____
« ____ » _____ 2009 й.
«Аниқ фанлар» кафедраси мудири
_____ Зияев А.

«Men XXI asr ma'naviyat asri, ma'rifat asri, ilm fan va madaniyat va axborot asri bo'lishiga qat'iyan aminman»

Islom Karimov

Kirish

Hozirgi kunda biror bir sohada ishni boshlash va uni boshqarishni kompyuterlarsiz tasavvur qilish qiyin. Zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini iqtisodiyot, fan va ta'limning barcha sohalariga keng joriy etish, xalqaro axborot tizimlariga, shu jumladan «Internet» xalqaro aloqalar tizimiga kirib borishini kengaytirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

XXI asr savodxon kishisi bo'lish uchun kompyuter savodxon bo'lish, axborot texnologiyalarini puxta egallamoq lozim. Har bir mutaxassis, u qaysi sohada ishlashdan qat'iyy nazar, o'z vazifasini zamon talabi darajasida bajarishi uchun axborotni ishlab chiqaruvchi vositalar va ularni ishlatish uslubiyotini bilish va ishlash ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Shu sababli bugungi kunda Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, jumladan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da "Kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish nazarda tutiladi" deb ta'kidlangan.

Hozirgi kunda kompyuterlar orasida eng mukammali va ommaviysi IBM PC va Pentium rusumli kompyuterlardir. Bu kompyuterlari ish yuritishni osonlashtirishda, ya'ni hujjat va har xil matnlarni tez tayyorlash va tahlil qilishda, hattoki telefon orqali axborot almashishda, murakkab hisoblarni tez bajarishda, o'quv jarayonida, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va h.k.da keng qo'llanilmoqda. IBM PC va Pentium kompyuterlari bilan muloqot bevosita operatsion tizim yordamida amalga oshiriladi. Operatsion tizim (OT) shunday bir maxsus dasturki, u kompyuter ishga tushirilishi bilan foydalanuvchi va kompyuter orasidagi muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi, uning barcha qurilmalari ishini boshqarish imkonini beradi. Operatsion tizim yordamida tezkor xotiradan foydalanish, disklardagi axborotlarni o'qish yoki axborotlarni disklarga yig'ish, amaliy dasturlarni ishga tushirish va ular ishlash holatlarini ta'minlash, tashqi qurilmalar ishlash holatlarini sozlash va ular bilan muloqotni o'rnatish va shu kabi turli amallarni bajarish mumkin.

Microsoft Windows XR - hozirgi zamon kompyuterlari uchun yaratilgan eng sulay, ishonchli va keng tarqalgan operatsion tizim hisoblanadi. Ayni vaqtda har bir foydalanuvchi uchun tushunarli bo'lgan ko'rgazmali, amaliy ko'rinishda tayyorlangan qo'llanmalarga ehtiyoj juda katta.

Ushbu o'quv uslubiy qo'llanmada Microsoft operatsion tizimlari imkoniyatlarining bir qismi qiyosiy tahlil qilingan hamda Microsoft Windows XR grafik operatsion tizim dasturida ishlash va muloqot qilish qoidalari bayon etilgan.

Mazkur o'quv uslubiy qo'llanma kompyuterni o'rganuvchilarga oz bo'lsada yordami tegsa qo'yilgan maqsadimizga erishdik deb hisoblaymiz.

Dars rejasi

1. Mavzu: Windows muhitida ishlash

2. Dars maqsadi: O'quvchilarga Windows muhitida ishlash, Windows operatsion tizimi va uning imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirish

3. Natija:

- O'quvchilar Windows operatsion tizimini boshqa operatsion tizimidan bemalol ajrata oladi;
- Windows operatsion tizimida ishlay oladi;
- O'quvchilarga berilgan savollarga aniq javob beradi.

4. Darsni jihozlash: darsliklar va o'quv qo'llanmalar, plakatlar hamda kompyuter.

5. Ajratilgan vaqt: 80 minut.

6. Dars turi: Noan'anaviy

7. Dars tipi: O'tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni o'zlashtirish

8. Darsda qo'llaniladigan usullar: savol-javob umumiy, o'quv faol metodlari, kuzatuvchi bilan o'quvchilar

9. Darsda qo'llaniladigan nazorat turi: og'zaki, kuzatish, yozma

10. Darsni o'tqazish joyi: Informatika xonasi

11. Mavzuni boshqa fanlar bilan bog'lash: axborot texnologiyalari, programma tillari, texnika fanlari

12. Kerakli bilimlar doirasi: O'quvchilarga Windows muhitida ishlash, va uning imkoniyatlaridan foydalana bilish

DARSNING TEXNOLOGIK VA XRONOLOGIK XARITASI

t/r	Darsning vaqti (daqiqa)	Darslarning bosqichlari	Bajariladigan ishlar mazmuni	Usul	Vositalar
1.	5	Tashkiliy qism	1. Salomlashish 2. Yo'qlama 3. O'quvchilarning darsga tayorgarligini tekshirish	Og'zaki	Jurnal, daftar, ruchka, doska va mel
2.	5	O'quvchilarning darsga tayorgarligini, uyga berilgan vazifani tekshirish	Noananaviy usullar asosida	Og'zaki	
3.	10	O'quvchilar bilimini tekshirish	Javoblardan xulosa qilinib	Og'zaki	Plakatlar
4.	10	Yangi mavzuni tushuntirish	Ilmiylik, tushunarliklik	Tinglash va yozish	
5.	35	Pedtexnologiyalarni qo'llash	Ilg'or pedtexnologiyalardan umumlashgan xolda foydalanish. Sistemaviylik, aktivlik, ko'rgazmalilik.	Plakatlar, kopyuter va o'quvchilarning aktivligi	
6.	10	Darsni yakunlash	Har tomonlama rivojlantirish.	Noananaviy	Savollar
7.	5	Uyga vazifa berish	O'tilgan dars adabiyoti bo'yicha mavzusi, sahifa beti, paragrifi bayon etiladi	Og'zaki	Daftar, ruchka

WINDOWS MUHITIDA ISHLASH

Microsoft Windows ning paydo bo'lishi mikro kompyuterlar tizimi sohasida yangi era boshlanganining belgisidir. MS DOS boshqaruvida ishlovchi 1980-yillardagi ishlanmalarning cho'qqisiga aylangan windows 3.1 ga ishchi guruhlar uchun mo'ljallangan Windows tizimlari kuchli ilovalarni qulay va o'zlashtirishga oson ko'p vazifali grafik muhitda ishga tushurish imkonini beradi. Windowsda bu tizimlarning imkoniyatlari takomillashtirilgan va kengaytirilgan, shaxsiy kompyuterda ishlashga yangicha soddalashtirilgan yondoshuv ta'minlangan. Bundan tashqari Windows ga zamonaviy shaxsiy kompyuterlarning quvvatini maksimal darajada ishlatish imkonini beradigan bir qator eng yangi texnik echimlar mujassamlashtirilgan.

Windows foydalanuvchi ixtiyoriga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

Foydalanuvchi uchun to'liq qayta ishlangan interfeys. Yangi interfeys sharofati bilan Windows da dasturlarni ishga tushirish, hujjatlarni ochish va saqlash, disklar va arxivlar bilan ishlash ancha oson va engil. Windows foydalanuvchisi uchun yangi interfeysining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Bosh menyu tugmasi (Start Menu Windowsning ruscha variantida- Главное меню)dasturlarga, oxirgi marta siz ishlagan xujjatlarga, boshqarish panellariga(Control Panel), printerlarga, tizimli utilitlarga soda murojatni ta'minlaydi;

- Bir dasturdan boshqasiga o'tishni soddalashtiradi;

- Oldingi versiyalardagi fayllar dispetcheri (File manager)ni almashtirib kelgan Windows o'tkazuvchisi (Windows Explorer)ning kuchli dastur ekanligini ko'rsatadi;

- Serverlarni ko'rib chiqish va tarmoq fayllariga xuddi lokal qattiq diskdagidek oson ishlov berish imkoni beruvchi tarmoq o'raining nishoni (Network Neighborhood) mavjud;

- Tez-tez ishlatiladigan dasturlar, panellar va hujjatlar uchun yorliqlar yaratish imkoni mavjud;

- Ob'ektlarning tizimini sozlashni engillashtiruvchi xususiyatlarining ro'yxatlari mavjud ;

- Hujjatga u yaratgan ilovani ishga tushurmay nazar tashlash imkonini beruvchi «tez ko'rib chiqish» vositasi mavjud ;

- Sizning kompyuteringizda bo'lganidek, tarmoq serverida ham ixtiyoriy axborotni tanlashga yordam beruvchi kuchli izlash dasturi mavjud;

- Tasodifan kerakli bo'lgan ma'lumotni chiqarib tashlaganingizda sizga uni tiklashda qo'l keladigan savatcha (Recycle Bin) mavjud;

- Printerlar va shriftlar bilan ishlash uchun oddiy asboblari ham mavjud;

- Tizimni o'rnatish va sozlashda foydalanuvchini kuzatuvchi «ustalar» jamoasi (Wizards) mavjuddir.

- Unda kontekstli izlash imkoni paydo bo'lgan takomillashtirilgan yordam tizimi mavjud.

Yangi tizimga o'tish Windowsga Windowsning oldingi versiyalarining qobiqlari bo'lgan dasturlar dispetcheri (Program Manager) va fayllar dispetcheri ham kirganliklari tufayli osonlashadi. Shunisi ham borki, ulardan uzoq vaqt foydalanish (agar umuman foydalanilsa) ehtimoli kam.

*** Fayl nomlari haqidagi ma'lumotlarni qo'llab quvvatlash.** Windows 3.X va MS DOS tizimlaridagi fayllar nomlarining uzunligiga qo'yilgan cheklovlar haqida yodingizdan chiqarib qo'yishingiz mumkin. Windowsda fayllar nomlarining uzunligi 255 gacha ramzdan iborat bo'lishi mumkin.

*** Tarmoqda ishlashni qo'llab-quvvatlashning kompyuterga qo'shib ishlangan vositalari.** Windows, shaxsiy kompyuterlar uchun mo'ljallangan oldingi ko'plab operatsion tizimlardan farqli o'laroq avval boshidanoq tarmoqda ishlash uchun yaratilgan edi va mana shuning uchun ham kompyuterdagi fayllar va uskunalar bilan birgalikda foydalanish imkoniyatlari Windows dan foydalanuvchining interfeysiga to'liq integrallashtirilgan.

*** Plug and Play.** Windows da periferiya uskunalarini o'rnatish va sozlashni maksimal darajada soddalashtirishga urinishi mujassamlangan, Plug and Play standartini qo'llab-quvvatlash amalga oshirilgan. Operatsion tizim mana shu tarzda avtomatik ulanishni va uskunalarining Plug and Play standartlari talablariga javob beradigan uskunalarini konfiguratsiyalashni ta'minlaydi, ular eskirgan uskunalar bilan moslashib ishlashni qo'llab-quvvatlaydi va muqobil komponentalarini ulash va

o'chirish uchun dinamik muhitni yaratadi.

* **Portativ kompyuterlarni qo'llab-quvvatlash.** Plug and Play standartini qo'llab-quvvatlashga qo'shimcha qilib Windows portativ kompyuterlardan foydalanuvchilar uchun fayllarni sinxronlashtirilishi, fayllarni bevosita kabelga ulanishi yordamida va masofadan uzatilishi vositalari yordamida taqdim etadi.

* **Multimediya ilovalarini qo'llab-quvvatlashning yangilangan vositalari.** Kompyuterga o'rnatilgan va ovoz, video kompakt disklar bilan ishlash imkonini beruvchi vositalar multimediya ilovalarining rivojlanishi uchun yangi turtki beradilar. Windows 95 - bu windowsning o'yin dasturiy ta'minotining qo'llab-quvvatlash sohasida MS DOSni bellashuvga chaqirgan birinchi versiyasidir.

* **MS-DOS va Windowsning birlashib ketishi.** Xozir Windows va MS DOS (Windows ME dan tashqari) yagona operatsion tizimni tashkil etadilar.

* **32 razryadli modullar.** Windows da 32 razryadli kod imkoniyati bo'lgan hamma joyda ishlatiladi, bu esa tizimning yuqori darajadagi ishonchliligi va buzulishga chidamliligini ta'minlash imkonini beradi. Eskirgan ilovalar va drayverlar bilan moslikni ta'minlashdan tashqari bu tizimda 16 razryadli kod ham ishlatiladi.

* **Siqib chiqaruvchi ko'pvazifalik.** Windows "qo'shma" ko'p vazifalik asosida ko'rilgan bo'lib, bunda ilovalar protsessordan birgalikda, uni vaqti vaqti bilan bir-biriga oshirib foydalanadilar. Agar ilovalardan biri protsessorni bo'shatishdan bosh tortsa, tizim bunga qarshi xech qanday chora ko'rolmaydi. Windows da siqib chiqaruvchi ko'p vazifalar joriy etilgan. Bunda hamma ilovalar operatsion tizimning to'liq nazorati ostidadir, dasturlarni birgalikda ishlatish uchun ajratilgan resurslardan samaraliroq foydalanadilar va xatosi bo'lgan xamda xato tuzulgan dasturlar tizimning "osilib qolishi" ehtimolini sezilarli darajada pasaytiradilar.

* **Ko'p oqimlilik.** Windows ko'p oqimlilikni tegishli tarzda yozilgan ilovalarga o'z shaxsiy jarayonlarining ko'p vazifali bajarilishini amalga oshirish uchun imkon beruvchi texnologiyani qo'llab quvvatlaydi. Masalan, elektron jadvallarga ishlov berishning ko'p oqimlilik tamoyillariga asoslanib yaratilgan dasturi bilan ishlaganda bir elektron jadvalni qayta hisoblab turib shu vaqtning o'zida boshqasini chop etaverishingiz mumkin.

* **Tizimning konfiguratsiyasi va foydalanuvchilar tanlagan sozlovlar haqida berilgan ma'lumotlarning markazlashgan bazasi.** Windowsning ro'yxati reestrida tizimning ilovalari va turli parametrlari haqida ma'lumotlar saqlanadi. Windowsning avvalgi versiyalari bilan moslikni ta'minlash uchun tizim Win.ini va System.ini fayllaridan foydalanadi. Odatda Windows ishlayotganida undan ko'p foydalanilmaydi.

* **Diagnostikaning optimallashtirish va xatolarni tuzatishni takomillashtirilgan xamda soddalashtirilgan vositalari.** Windows tarkibiga tizim unumdorligini optimallashtiruvchi quyidagi vositalar kiradi: o'zini o'zi sozlaydigan dinamik disk KESH, diskarning mantiqiy va tabiiy tuzilmasini tekshirish uchun mo'ljallangan Scan Disk dasturlari, diskarni siquvchi Driver Space tizimi va diskarni defragmentatsiya qilish uchun nihoyatda sodda bo'lgan dasturlardan foydalanish. Bundan tashqari Windowsga uskunalar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda yordam beradigan uskunalar dispatcher (Device Manager) maxsus dasturga kiritilgan.

Windows to'g'risida dastlabki ma'lumotlar

Windowsni ishga tushirish uchun hech qanday buyruqni kiritish kerak emas. Siz shunchaki kompyuterni yoqasiz va bir necha daqiqadan so'ng tizimda bo'lasiz. Agar kompyuter tarmoqqa ulangan bo'lsa, uni ishga tushirilganingizda Windows sizdan ismingizni va parolingizni so'raydi. Bu jarayon «tizinga kirish» yoki «ro'yxatdan o'tish» deb ataladi. Bundan tashqari, yangi tizimni shunday qilish mumkinki, unda siz ismingiz va parolingizni kompyuter tarmoqqa ulanmagan hollardagina kiritishingizga to'g'ri keladi.

Shunisi etiborga loyiqki, tizim ishga tushgach siz shu zahotiyoq ishlayotgan ilovaga tushib qolishingiz mumkin. (Windows ilovalarni seansning eng boshida avtomatik yuklash imkoniyatini taqdim etadi). Agar "start" paytida ekranda qaysidir dasturning oynasi paydo bo'lsa, ish stolining ustini to'liq tozalab tashlasangiz maqsadga muvofiq bo'lardi, chunki sizga Windowsning taqdim etilgan "peyzaj"larini shunday o'rganish qulayroq bo'ladi.

Shunday qilib siz ish stolining yuzasini tozaladingiz va Windows bilan tanishishga tayyorsiz, ammo ishni boshlash uchun dastlab tizimga kirishni batafsilroq ko'rib chiqaylik.

Windowsda birinchi bor ishlayotganlar uchun


Agar siz ilgari Windows bilan ishlamagan bo'lsangiz ham u bilan ishlashga kirishish juda oson. Navbatdagi rasmda Windows (Windows Me) ish stolining asosiy elementlari ko'rsatilgan. Ish stoli – bu ekranda paydo bo'luvchi ish sohasidir. Ish stolidan amalda barcha vazifalarni hal qilishda: dasturlarni ishga tushurish, fayllardan nusxa olish, internetga ulanish, elektron pochta o'qish va boshqalarda foydalaniladi. Ish stolining tashqi ko'rinishi kompyuterga windowsni o'rnatish va uni saqlashga bog'liqdir.

Windows ish stolining tipik qiyofasida: lokal kompyuter tarmoqlari bilan tanishish imkonini

beruvchi vazifalar paneli, ob'ektlar, hujjatlar, papkalar va dasturlardan foydalanish uchun yo'l

ko'rsatuvchi yorliqlar ko'rinib turibdi.

Eslatilgan barcha ob'ektlar uchun fan bo'lib ish stolining yuzasi xizmat qiladi. Aynan u orqali siz Windows bilan ishlaysiz. Sizning monitoringizdagi tasvir rasmda ko'rsatilganidan biroz farqlanishi mumkin. Vazifalar satri ekrannig boshqa chetida joylashishi, yuqori chap burchakda belgilar joylashgan bo'lishi (yoki xuddi shularning o'zi boshqa nomlarda bo'lishi) mumkin. Sizda yorliqlar ko'p yoki oz bo'lishi mumkin va ixtiyoriy xolatda ular rasmda ko'rsatilganlar bilan nimasi bilandir farq qiladi. Ammo shunga qaramay, sizning kompyuteringizning ekrani bu hozirgina qarab o'tgan elementlarning ko'pchiligini o'zida mujassam qilgan bo'ladi.



Windows ma'lumotnomasi Windows haqidagi ma'lumotlarning asosiy manbaidir. Bosh menyudagi ma'lumotnomadan istalgan paytda foydalanish mumkin va ushbu kitobning elektron variantida, o'zida elektron boshqaruvning nosozliklarni tuzatish vositalar tizimi haqidagi xamda

interfeysdagi resurslarga tayanishi xaqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Va eng muhimi, ma'lumotnomada printerni o'rnatishdan boshlab internetga ulanishgacha bo'lgan turli xildagi eng xilma-xil vazifalarni bajarish usullari bayon qilingan.

Windows malumotnomasini ishga tushurish

Ishga tushurish uchun "Pusk" tugmachasini bosib va ma'lumotnomani tanlang.

Ekranda Windows ma'lumotnomasining oynasi paydo bo'ladi.

Har bir ilova ma'lumotlarni qidirishning ma'lum bir usuliga muvofiq bo'ladi. Ilova mazmunini bo'limlar bo'yicha izlash uchun, predmet ko'rsatkichi - qo'shimcha kalit so'zlar bo'yicha qidirish uchun, izlash ilovasi esa matn bo'yicha qidirish uchun xizmat qiladi.

Windows NT tizimlarining an'anaviy fazilatlari

Windows 2000 Professional o'ziga Windows Ntning an'anaviy kuchli tomonlari: axborotni ximoyalanganligi, yuqori darajadagi ishonchlilik, unumdorlikni meros qilib oladi.

Axborotning himoyalangan modifikatsiyalangan NTFS 5.0 fayl tizimini, shifrlovchi (EFM) fayl tizimini, tarmoqning yopiq vertual qismining (VPN) yaratish imkonini beruvchi kommunikatsion bayon (protokollar), kerberos identifikatsiyalash (Windows 2000 tarmoqlarida) bayonini va ma'lumotlarga yo'llashni boshqarishning smor-karta kabi texnologiyalarini yo'llash sharofati bilan erishiladi.

Amallar tizimi tizimni (bayonlarni yoki yangi qurilmalar va hokazolarni qo'shgandan so'ng) qayta yuklash zarurati sezilarli darajada pasaytirilgan, qurilmalarning ishonchliligi oshirilgan, Windows Installer ning dasturiy mahsulotlarni istallyatsiyalash jarayoniga qo'yiladigan yangi talablarni belgilovchi yangi xizmati qo'llaniladigan barqaror va ishonchli ish muhitini ta'minlaydi.

Tizimda ilovalarning ko'p vazifalarni bajarilishini ta'minlash yaxshilangan xotirani va protsessorlarni masshtablanuvchi qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi, lokal disklardagi va tarmoqdagi axborotga yo'llash (fayllarning ichidagi ma'lumotlarni indeksatsiyalash tufayli) tezlashadi.

Windows 98 ning eng yaxshi xususiyatlari

Windows 2000 Professional tizimida Windows 98 tizim chiqarilganidan so'ng paydo bo'lgan muvofaqqiyatli echimlarning ko'pi qo'llanilgan.

Windows NT 4.0ga qaraganda Windows 2000 Professional mavjud ilovalar va drayverlarning yaxshiroq qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi. Yangi tizim mavjud bo'lgan 32 razryadli ko'p ilovalarni, shuningdek 16 razryadli Win-va DOS ilovalarni qo'llab quvvatlaydi. Ammo Windows NT tizimining havfsizlik modeliga mos kelmaydigan ilovalar Windows 2000 Professional tizimda ishlay olmaydilar. Yangi tizim birgalikda, moslashib ishlay oladigan apparat qurilmalarining ancha keng ro'yxatiga ega, ya'ni bunday qurilmalar soni unda ko'p.

Yangi avlod qurilmalari: elektr ta'minotini boshqarish imkoniyatiga ega kompyuterlar, AGP, USB va IEEE 1394 shinalari, DVD disklari, FNV adapterlari, kabel modamlari va hokazolar qo'llab-quvvatlanadi.

Kompyuterda Windows NT Server, Novell NetWare yoki UNIX tizimlariga ulash uchun uskuna bilan qo'shib chiqarilgan tarmoq qo'llab-quvvatlash qurilmasi bor.

TSO ning pasaytirilishi

Windows 2000 Professional tizimida korporativ tarmoqlarda tizimidan foydalanishga ketadigan harajatlarni pasaytirishga da'vat etilgan ko'plab echimlar qo'llanilgan. Windows 2000 Professionalni o'rnatishda mavjud tizimlarni yangilash imkoniyatlari kengaytirilgan, tizimni installatsiyalash jarayonining o'zi soddalashtirilgan va avtomatlashtirilgan. Tizim chiqarilgan ma'murlashtirish, dasturlarni o'rnatish va chiqarib tashlashning rivojlangan vositalariga hamda kompyuterga qo'shib o'rnatilgan, yuklanish jarayonini diagnostika qilishning takomillashgan vositasiga ega.

Windows 2000 Server tizimi bilan qo'shib Windows 2000 Professional o'zida ma'murlashtirishning yangi vositalari: korporativ tarmoqni havfsizlik siyosati andozalaridan va Active Directory dan foydalanib markazlashtirilgan holda ma'muriy boshqarish; dasturiy mahsulotlarni installatsiyalash, yangilash, tiklash va chiqarib tashlashni boshqarishni birlashtirgan

IntelliMirror texnologiyasining imkoniyatlarini amalga oshiradi.

Windows XP Professionalning yangi imkoniyatlari

Windows XP Professional dvasturlarning fon rejimida ishlashi uchun yaxshilangan imkoniyatlarga ega. Umumiy himoya sezilarli ravishda yaxshilangan, shuning uchun endi internetning sharhlovchisini ishlatish va unda xaridlar qilish ancha havfsiz. Shuningdek shaxsiy ma'lumotlar fayllarining maxfiyligi saqlanishdan xavfsiramasdan tarmoqlar bo'yicha boshqa foydalanuvchilar bilan ham muloqot qilish mumkin. Harakatlarning tezlik bilan amalga oshirilishi dasturlarning katta miqdorini bir vaqtning o'zida ishga tushirish, imkonini beradi, bunda dasturlar maksimal tezlikda ishlaydilar. Windows XP Professional ishonchli va barqarordir. Shuning uchun har doim kompyuterning tez harakat qilishi va samarali ishlashiga ishonish mumkin. Bundan tashqari boshqa dasturlar bilan moslashish, birgalikda ishlashning maksimal ravishda mumkin bo'lgan darajasiga erishilgan.

Ko'rinib turibdiki, Windows XP Professional vositalari kompyuterdan foydalanishni soddalashtirish imkoniyatini beradilar, ish samaradorligini va kompyuterdan ko'ngil ochish uchun foydalanish imkoniyatlarini ta'minlaydilar. Masalan, "Ish stolini distantsion boshqarish vositasi yordamida ishchi kompyuteri va uning resurslariga uydin turib yo'llash imkoniga ega bo'lish, xodim kompyuterining ish stolidagi fayllar va hujjatlarni ko'rib chiqish mumkin. "NetMeeting" dasturi yordamida erishilgan istalgan nuqtasida joylashgan foydalanuvchilar bilan tarmoq bo'yicha virtual majlislar tashkil qilish, shuningdek audio va video uskunalar va «so'zlashuv» dasturidan foydalanib, muhokamalarda qatnashish mumkin. Ma'lumotnoma olish bunda juda (maksimal darajada) soddalashtirilgan. «Chiqarib tashlangan yordamchi» vositasi yordamida elektron pochta orqali kompyuterlar bo'yicha mutaxassisga yoki qo'llab-quvvatlash xizmati xodimiga xabar yuborish mumkin, u yuzaga kelgan muammoni o'zi turgan joyda hal qilishga yordam beradi. Windows XP Professional tizimida ishlaganda operatsion tizimning hamma vositalari haqida axborotni hamda muammoni echish, hal qilish ehtimoli bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni olishga yordam beruvchi elektron darslikni o'z ichiga olgan kengaytirilgan interfaol ma'lumotlar tizimidan foydalanish imkonini beradi.

Windows XP Professional boshqa ko'plab yangi vositalar cheklovlarisiz foydalana oladi.

Windows XP Professionalni boshqa yangi imkoniyatlari

Windows XP Professional bilan ishlaganda ko'pgina yangi ancha samarali vositalar va texnologiyalarga yo'llash, ularni qo'llash, ishlatish imkoniyati bor. Ish stoli distantsion boshqarish yordamida Windows seansiga boshqa kompyuterdan xuddi o'z kompyuteringizda ishlayotgandek, kirish yo'llash imkonini qo'lga kiritish mumkin. "Izlash bo'yicha yordamchi" vositasi yordamida kerakli ma'lumotlarni tezda topish mumkin. "Windows fayllarini himoya qilish" va "Tizimni qayta tiklash" vositalari muhim fayllarning tasodifan o'chirilishining oldini oladilar va muammolar yuzaga kelganida tizimni boshlang'ich holatga qaytaradilar. Tizim yoki dastur xato qilgan hollarda maykrosoft korporatsiyasiga hisobot yuborish, shuningdek NetMeeting komponentini boshqa foydalanuvchilar bilan tarmoq bo'yicha istalgan paytda majlis o'tkazish uchun ishlatish mumkin. Ekran tekis (xuddi ko'tarib yuriladigan kompyuterlarnikidek) monitorli kompyuterda ishlayotganda ekran shriftlarini aks ettirish uchun ClearType texnologiyasidan foydalanish mumkin. (Bu Maykrosoft korporatsiyasining shriftlarining aks etilishining aniqligini ta'minlovchi ilg'or texnologiyasidir). Bundan tashqari Dualview texnologiyasi ko'tarib yuriladigan kompyuterli alohida monitordan foydalanish imkonini beradi.

Ish stolini masofadan turib (distsion) boshqarish

Ish kompyuteri va uning resurslarini uyda ishlatishni xohlaysizmi? Birgalikda bajariladigan ishlarni amalga oshirish uchun o'z kompyuteringizni ish stoliga xodimlarning kompyuterlaridan kirish uchun imkonni qo'lga kiritish kerakmi? Windows XP Professionaldan foydalanilganida bu uncha murakkab ish emas! "Ish stolini distantsion boshqarish" vositasi yordamida, bu paytda o'zingiz boshqa kompyuter orqasida turib, o'z kompyuteringizdagi Windows seansiga yo'llashga imkon olishingiz mumkin. Masalan, ish kompyuterlariga uyda o'tirib ulanish, xuddi ish kompyuterida

ishlayotgan paytdagidek hamma fayllar, ilovalar va tarmoq resurslariga yo‘llash imkonini olish mumkin. Shuningdek xodimning kompyuterini orqasida turib, o‘z kompyuteringiz ish stolidagi fayllar va hujjatlarni ko‘rib chiqish mumkin. “Ish stolini masofadan turib boshqarish” vositasidan foydalanilganida bir nechta foydalanuvchi bitta kompyuterning o‘zida faol seanslar o‘tkazishlari mumkin. Bunday holda hatto tizimga boshqa foydalanuvchilar kirganlarida ham har bir foydalanuvchining Windows seansining holati o‘zgarib qolmaydi, ishga tushirilgan dasturlar esa avvalgidек bajarilaveradi.

Izlash bo‘yicha yordamchi

Windows XP Professionalda izlash bo‘yicha yordamchidan foydalanilganida tasvir, musiqiy fayllar, hujjatlar, printerlar, kompyuterlar va odamlar kabi ob’ektlarning hamma tiplari bo‘yicha izlashni bajarish imkoniyati mavjuddir. O‘z kompyuteringizda, boshqa kompyuterlarda (tarmoqqa yoki ishchi guruhiga ulashi mavjud bo‘lgan hollarda), shuningdek internetda olib borish mumkin. Qidiruvni animatsiya qilingan personaj yordamidan foydalanib ham bajarish mumkin.

Ko‘tarib yuriladigan kompyuterga ikkinchi monitorni ulash

Ko‘tarib yuriladigan kompyuterda ishlaganda katta o‘lchamli ekrandan foydalanishni xohlaysizmi? Dualview texnologiyasi ko‘tarib yuriladigan kompyuterga har xil ekranda har xil dasturni ko‘rish uchun alohida monitor ulashga imkon beradi. Masalan, bitta ekranda elektron pochta xabarlarini boshqasida esa elektron jadvalni ko‘rib chiqish mumkin. Dualview texnologiyasi bir nechta monitordan foydalanish texnologiyasiga o‘xshash, ammo uning uchun bitta videoadapter zarur. Hamma videoadapterlar ham Dualview texnologiyasini qo‘llab-quvvatlamaydilar.

Windows fayllarni himoya qilish

Operatsion tizimdan farq qiladigan dasturiy ta‘minotni o‘rnatish, ayniqsa agar yangi dasturiy ta‘minot operatsion tizimning muhim fayllarini almashtirish mumkin bo‘lsa, ma‘lum darajadagi mahoratni talab qilishi mumkin. Bunaqangi harakatlar tizimning va dasturlarning beqaror ishlashiga va shuningdek operatsion tizim ishining buzulishiga olib kelishi ehtimoli bor. Bularning oldini olish choralari ko‘rilgan. Bunday choralardan biri bo‘lgan “Windows fayllarini himoya qilish” vositasi tizim fayllarining almashtirilishi yoki o‘chirilishining oldini olish uchun ishlatiladi. Windows fayllarini himoya qilish fon rejimida amalga oshiriladi. Buning natijasida Windowsning o‘rnatish dasturi tomonidan o‘rnatilgan hamma fayllar himoyalanganadi.

Tizimni qayta tiklash

Tizimning ishlashida muammolar yuzaga kelgan hollarda kompyuterni shaxsiy ma‘lumotlar (Internetda ishlash uchun «Tanlangan» papkasi ichidagi hujjatlar, elektron pochta xabarlari kabi ma‘lumotlar) fayllarini yo‘qotmasdan so‘nggi barqaror holatgacha qayta tiklash mumkin. «Tizimni qayta tiklash dasturi kompyuterdagi o‘zgarishlarni kuzatib boradi va vaqti-vaqti bilan oson identifikatsiyalanadigan qayta tiklanish nuqtalarini yaratadi. Bu qayta tiklanish nuqtalari tizimini oldingi xolatiga qaytarish imkonini beradi. Foydalanuvchi shuningdek istalgan vaqtda qayta tiklashning nom qo‘yilgan nuqtalarini yaratish imkoniga ega.

Xatolarni qayd qilish

Windows XP Professional va internetga ulanish yordamida Maykrosoft korporatsiyasining maxsus xizmatida tizimli va dasturiy xatolarni qayd qilish mumkin. Agar xato yuzaga kelgan paytda foydalanuvchi uni qayd qilishni xohlasa yuzaga kelgan muammo haqidagi texnik ma‘lumotlar internet orqali Maykrosoft korporatsiyasining maxsus xizmatiga jo‘natiladi. Agar bunday muammo allaqachon ro‘yxatga olingan bo‘lsa, bu masala bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumotlar jo‘natilishi mumkin. Maykrosoft korporatsiyasi tomonidan olingan ma‘lumotlar ishlab chiquvchilar guruhlariga tomonidan sifatni nazoratga olish uchun foydalaniladi va reklamani tarqatish maqsadida foydalanuvchilarni izlab topish uchun ishlatilmaydi.

Fayllar va papkalar bilan ishlash uchun yangi imkoniyatlar

Windows XP Professionaldan foydalanilganda fayllar va papkalar bilan ishlash ancha samarali

bajariladi. Endi ancha tushunarli bo'lgan Web-sahifalarning interfeysi bilan ishlash va fayllar hamda papkalar haqidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqish mumkin. Ma'lum bir tipdagi fayllarni ma'lum bir dasturlar bilan solishtirish ko'proq imkoniyatlar mavjud. Bundan tashqari fayllar va papkalar bilan avtonom ishlash maksimal darajada soddalashtirilgan. Kompyuterdagi joyni tejash maqsadida fayllar va papkalarni qisish oddiy va tez bajariladi.

Vazifalarni bajarishning soddalashtirilgan usuli

Faylni qayta nomlash yoki faylni elektron pochta xabariga jo'natish kerakmi? Endi boshqa papka va joylashish erlariga ishora qilish, shuningdek fayllar va papkalar ustidagi eng sodda amallar har bir papkaning mundarijasidagi ro'yxatda keltirilgan. Masalan, «Mening hujjatlarim» papkasidagi *Tasvirlash uchun vazifalar* ishorasini tanlab, tasvirini chop etish yoki hamma tasvirlarning slayd shousini ko'rib chiqish mumkin.

Fayllar va tasvirlarni ko'rib chiqishning yangi usullari

Windows XP Professional bilan ishlaganda fayllarni va papkalardagi tasvirlarni guruhlashning va aks ettirishning yangi usullarini qo'llash imkoni bo'ladi. Fayllar va tasvirlarni toifalar bo'yicha (alifbo tartibida yoki fayl turi bo'yicha) guruhlanga bo'lish mumkin.

Fayllarni solishtirish

Windows XP Professional dan foydalanilganda tarmoq fayllarini tarmoqqa ulanganda ular bilan ishlash mumkin bo'lishi uchun avtomatik rejimda foydalansa bo'ladigan qilish mumkin. Bu imkoniyatni ishlatish ko'tarib yuriladigan kompyuter bilan ishlaganda, shuningdek uzoq vaqt tarmoqqa ulanish iloji bo'lmaganda qulaydir. Tarmoqqa qaytib ulanganda avtonom ishlash paytida faylga kiritilgan hamma o'zgarishlar yangilanadi. Fayllarga yo'lash umumiy bo'lganda tarmoqqa ulangan boshqa foydalanuvchilar fayllarni avtonom rejimda ko'rib chiqishlari va o'zgartirishlari mumkin.

ZIP papkasini siqish

Windows XP Professional operatsion tizimning "ZIP papkasini siqish" vositasidan foydalanilganida papkalar egallagan maydonning hajmini kamaytirish mumkin. Siqilgan papkalar bilan ishlash xuddi siqilmagan papkalar bilan olib borilganidek amalga oshiriladi.

Agar qattiq disk fayl tizimi uchun formatlarshtirilgan bo'lsa NTFS fayllarini siqishni ham shunday bajarish mumkin. Ammo NTFS fayllarini siqish "ZIP fayllarini siqish" vositasida fayllarni siqilganda sezilarli ravishda farqlanadi.

TEST

1.Windows XP operatsion tizimining ish stoli nimalardan tashkil topgan?

- A) Moy kompyuter, korzina, masalalar paneli va dasturlar tamgalaridan.
- B) PUSK tugmachasi, masalalar, indekatorlar.
- C) Disklar ruyxati, boshqaruv paneli va printer urnatgishi.
- D) Word, Exsel, PowerPoint, Photo Editor, Assess
- D) Windows-3, 11 Windows-95, Windows-98, Windows-2000, Windows-Mellinum, Windows-XP

2.Moy kompyuterda nimalar joylashgan?

- A) Moy kompyuter, korzina, masalalar paneli va dasturlar tamgalari.
- B) PUSK tugmachasi, masalalar, indekatorlar.
- C) Disklar ruyxati, boshqaruv paneli va printer urnatgishi.
- D) Word, Exsel, PowerPoint, Photo Editor, Assess
- D) Windows-3, 11 Windows-95, Windows-98, Windows-2000, Windows-Mellinum, Windows-XP

3. Masalalar paneli nimalardan iborat?

- A) Moy kompyuter, korzina, masalalar paneli va dasturlar tamgalari.
- B) PUSK tugmachasi, masalalar, indekatorlar.
- C) Disklar ruyxati, boshqaruv paneli va printer urnatgishi.
- D) Word, Exsel, PowerPoint, Photo Editor, Assess
- D) Windows-3, 11 Windows-95, Windows-98, Windows-2000, Windows-Mellinum, Windows-XP

4. Windows versiyalari qaysi bir javobda berilgan?

- A) Moy kompyuter, korzina, masalalar paneli va dasturlar tamgalari.
- B) PUSK tugmachasi, masalalar, indekatorlar.
- C) Disklar ruyxati, boshqaruv paneli va printer urnatgishi.
- D) Word, Exsel, PowerPoint, Photo Editor, Assess
- D) Windows-3, 11 Windows-95, Windows-98, Windows-2000, Windows-Mellinum, Windows-XP

5. Windows-XPPusk tugmachasi amallari ruyxatini tanlang?

- A) Zavershenie raboto`, Ostanovka, Vo`polnit, Spravka, Poisk, Nastroyka, Dokumeto`, Programmo`.
- B) Fayl, Pravka, Vid,?
- C) Vostanovit, Peremestit, Razmer, Svernut, Razvernut, Zakro`t.
- D) Fayl, Pravka, Vid, Vstavka, Format, Servis, Danno`e, Okno.
- D) Levaya, Fayl, Disk, Komando`, Pravaya

6. Windows operatsion tizimida «Korzina» nima vazifani bajaradi?

- A) Ushirilgan fayllarni vaqtinsha saqlab turish ushun xizmat qiladi.
- B) Mashinani o`chirishga tayyorlaydi.
- C) Fayl va kompyuterlarni izlab topadi.
- D) Oxirgi ishlangan xujjatlar ruyxati saklaydi.
- D) Kompyuter tarmog`i bilan ishlaydi.

7. Pusk tugmachasidagi «Zavershenie raboto`» amali nima vazifani bajaradi?

- A) Ushirilgan fayllarni vaqtinsha saqlab turish ushun xizmat qiladi.
- B) Mashinani o`chirishga tayyorlaydi.
- C) Mashinani matnli mo`hitga (MS DOS) o`tkazadi.
- D) Mashinani qayta yuklaydi.
- D) 2, 3 va 4 javoblar birlashmasi

8. Pusk tugmachasidagi «Dokumeto`» amali nima vazifani bajaradi?

- A) Ushirilgan fayllarni vaqtinsha saqlab turish ushun xizmat qiladi.
- B) Mashinani o`chirishga tayyorlaydi.
- C) Fayl va kompyuterlarni izlab topadi.
- D) Oxirgi ishlangan xujjatlar ruyxati saklaydi.
- D) Kompyuter tarmog`i bilan ishlaydi.

9. Pusk tugmachasidagi «Poisk» amali nima vazifani bajaradi?

- A) Ushirilgan fayllarni vaqtinsha saqlab turish ushun xizmat qiladi.
- B) Mashinani o`chirishga tayyorlaydi.
- C) Fayl va kompyuterlarni izlab topadi.
- D) Oxirgi ishlangan xujjatlar ruyxati saklaydi.
- D) Kompyuter tarmog`i bilan ishlaydi.

10. Ish stolidagi «Setevoe okrujeniya» amali nima vazifani bajaradi?

- A) Ushirilgan fayllarni vaqtinsha saqlab turish ushun xizmat qiladi.
- B) Mashinani o`chirishga tayyorlaydi.
- C) Fayl va kompyuterlarni izlab topadi.
- D) Oxirgi ishlangan xujjatlar ruyxati saklaydi.
- D) Kompyuter tarmog`i bilan ishlaydi.

11.Windows standart dasturlarini tanlang?

- A) Bloknot, Paint grafik muharriri, WordPad matn muharriri
- B) Kalkulyator, Imaging C) Norton Commandr, Word D) 1 va 2 javoblar birlashmasi
- D) Fdisk, Command.com

12.Windows suzi ma'nosi nimadan iborat?

- A) Lotinsha suzdan olingan bulib darsha degani. B) Inglizsha suzdan olingan bulib darsha va oyna degani.
- C) Frantsuzsha suzdan olingan bulib darsha degani. D) Arabsha suzdan olingan bulib darsha degani.
- D) Nemizsha suzdan olingan bulib darsha degani.

13.Oynalar ustida bajariladigan amallar berilgan javobni tanlang.

- A) Zavershenie raboto`, Ostanovka, Vo`polnit, Spravka, Poisk, Nastroyka, Dokumeto`, Programmo`.
- B) Fayl, Pravka, Vid,? C) Vostanovit, Peremestit, Razmer, Svernut, Razvernut, Zakro`t.
- D) Fayl, Pravka, Vid, Vstavka, Format, Servis, Danno`e, Okno.
- D) Levaya, Fayl, Disk, Komando`, Pravaya

14.Windows operatsion tizimi oynalari tulik tasvirlangan javobni tanlang?

- A) Faol oyna, faol bo`lmagan oyna. B) Faol oyna, faol bo`lmagan oyna va ma'lumotlar oynasi.
- C) Faol oyna. D) Faol bo`lmagan oyna. D) Ma'lumotlar oynasi.

15.Windows operatsion tizimida faol oynani yopish qaysi javoblarda berilgan?

- A) Chap Alt bosilgan xolda F4 tugmachasi bosilgan xolda.
- B) Sichqoncha yordamida tizim tugmachasini bosilgan xolda.
- C) Menyuning Fayl bulimidagi Zakro`t yoki Vo`xod amallari yordamida.
- D) O`ng Alt bosilgan xolda F4 tugmachasi bosilgan xolda.
- D) 1, 2 va 3 javoblar birlashmasi.

16.Windows-XPasosiy menyusi ifoda etgan javobni toping.

- A) Zavershenie raboto`, Ostanovka, Vo`polnit, Spravka, Poisk, Nastroyka, Dokumeto`, Programmo`.
- B) Fayl, Pravka, Vid,? C) Vostanovit, Peremestit, Razmer, Svernut, Razvernut, Zakro`t.
- D) Fayl, Pravka, Vid, Vstavka, Format, Servis, Danno`e, Okno.
- D) Levaya, Fayl, Disk, Komando`, Pravaya

17.Windows operatsion tizimida fayl nomi neshta belgidan iborat bo'lishi mumkin?

- A) 255 ta belgidan. B) 256 ta. C) 8 ta belgidan iborat bo'lishi lozim.
- D) 3 ta belgidan D) 1, 2 va 3 javoblar birlashmasi.

18.Windows-XPfayl menyusi amallari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) Otmenit, Vo`rezat, Kopirovat, Vstavit, Vo`delit vse.
- B) Otkro`t, Provodnik, Nayti, Dostup, Udalo`t, Pereimenovat, Svoystva Zakro`t.
- C) Panelno`y instrumentov, Stroka sostoyano`e, Krupno`e znashki, Spisok, Tablitsa, Uporyadoshit znashki, Vo`sroit znashki, Obnovit, Parametro`.
- D) Vo`zov spravki, Windows 9D)
- D) 1, 2 va 3 javoblar birlashmasi.

19.Windows-XPda kursor turgan fayl yoki papkani nomini almashtirish amalini tanlang.

- A) Fayl bulimidagi «Udalit» amali yordamida.
- B) Fayl bulimidagi «Pereimenovat» amali yordamida.
- C) 1 va 5 javoblar birlashmasi.
- D) Fayl, Pravka, Vid, Vstavka, Format, Servis, Danno`e, Okno.
- D) Klaviaturadagi Delete tugmachasi yordamida.

20.Windows-XP«Pravka» menyusi amallari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) Otmenit, Vo`rezat, Kopirovat, Vstavit, Vo`delit vse.
- B) Otkro`t, Provodnik, Nayti, Dostup, Udalo`t, Pereimenovat, Svoystva Zakro`t.
- C) Panelno`y instrumentov, Stroka sostoyano`e, Krupno`e znashki, Spisok, Tablitsa, Uporyadoshit znashki, Vo`sroit znashki, Obnovit, Parametro`.
- D) Vo`zov spravki, Windows 9D)
- D) 1, 2 va 3 javoblar birlashmasi.

21.Windows-XP«Vid» menyusi amallari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) Otmenit, Vo`rezat, Kopirovat, Vstavit, Vo`delit vse.
- B) Otkro`t, Provodnik, Nayti, Dostup, Udalo`t, Pereimenovat, Svoystva Zakro`t.
- C) Panelno`y instrumentov, Stroka sostoyano`e, Krupno`e znashki, Spisok, Tablitsa, Uporyadoshit znashki, Vo`sroit znashki, Obnovit, Parametro`.
- D) Vo`zov spravki, Windows 9D)
- D) 1, 2 va 3 javoblar birlashmasi.

22.Windows-XPasosiy menyusi ifoda etgan javobni toping.

- A) Zavershenie raboto`, Ostanovka, Vo`polnit, Spravka, Poisk, Nastroyka, Dokumeto`, Programmo`.
- B) Fayl, Pravka, Vid,?
- C) Vostanovit, Peremestit, Razmer, Svernut, Razvernut, Zakro`t.
- D) Fayl, Pravka, Vid, Vstavka, Format, Servis, Danno`e, Okno.
- D) Levaya, Fayl, Disk, Komando`, Pravaya

23.Windows-XPda kursor turgan fayl yoki papkani o`chirish amalini tanlang.

- A) Fayl bulimidagi «Udalit» amali yordamida.
- B) Fayl bulimidagi «Pereimenovat» amali yordamida.
- C) 1 va 5 javoblar birlashmasi.
- D) Fayl, Pravka, Vid, Vstavka, Format, Servis, Danno`e, Okno.
- D) Klaviaturadagi Delete tugmachasi yordamida.

24.Windows-95 «?» menyusi amallari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) Otmenit, Vo`rezat, Kopirovat, Vstavit, Vo`delit vse.
- B) Otkro`t, Provodnik, Nayti, Dostup, Udalo`t, Pereimenovat, Svoystva Zakro`t.
- C) Panelno`y instrumentov, Stroka sostoyano`e, Krupno`e znashki, Spisok, Tablitsa, Uporyadoshit znashki, Vo`sroit znashki, Obnovit, Parametro`.
- D) Vo`zov spravki, Windows 9D)
- D) 1, 2 va 3 javoblar birlashmasi.

25.Windows operatsion tizimida klaviaturadagi xarflarni kirilshadan lotinshaga almashtirish necha usulda amalga oshiriladi?

- A) Bitta usulda: Ctrl, Shift tugmachalari birgalikda bosilgan xolda
- B) Bitta usulda: Alt, Shift tugmachalari birgalikda bosilgan xolda
- C) Ikkita usulda: Ctrl, Shift birgalikda va chap Alt va Shift tugmachalari yordamida
- D) uchta usulda: Ctrl, Shift birgalikda va chap Alt, Shift tugmachalari yordamida hamda sichqoncha yordamida
- D) Barcha javoblar noto'g'ri

Tavsiya etiladigan noano'anaviy ta'lim modellarining metodlari

To'rt pog'onali metod - amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonining to'rt pog'ona doirasida kechadigan metoddir.

Bu metod o'quvchilarga bir xilda takrorlanadigan ko'p ko'nikmalarini tez va mukammal o'rganib olishlariga yordam beradi. To'rt pog'onali metod qo'llanilganda, o'quvchilar iloji boricha oddiy operatsiyalar bilan tanishtiriladi, so'ng uni takrorlaydilar va to mukammal o'zlashtirmaguncha mashq qiladilar.

Ushbu metod quyidagi bosqichlardan iborat:

- tushuntirish;
- nima qilish kerakligini ko'rsatib berish;
- ko'rsatilgan tarzda qaytarish;
- mashq qilish.

To'rt pog'onali metodning asosiy belgisi - o'quvchilarning harakatlari o'qituvchi ko'rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganligidadir.

«To'rt pog'onali» metodning afzalliklari:

- o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beradi;
- vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud;
- oddiy ish bosqichlarini o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.

«To'rt pog'onali» metodning kamchiliklari:

- o'quvchilarning harakatlari o'qituvchi ko'rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanib qoladi;
- o'quvchilar yakka tartibda o'rganishga yo'naltiriladilar, lekin mustaqil fikrlash imkoniyati chegaralangan bo'ladi;
- ish bosqichlarini amalga oshirishda hech qanday yangicha yondoshuvlarga yo'l qo'yilmaydi.

Kichik guruhlarda ishlash metodi - o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, berilgan topshiriqning echish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi metoddir. Ushbu metod qo'llanilganda o'quvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai - nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodi qo'llanilganda o'qituvchi boshqa noan'anaviy metodlarga qaraganda vaqtning tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha oquvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtning tejash imkoniyati mavjud;
- barcha o'quvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- kuchsiz o'quvchilar bo'lganligi sababli kuchli o'quvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha o'quvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin.
- Guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

Bahs-munozara metodi - o'quvchilarni ikki guruhga bo'lgan holda, biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini o'quvchilarning biriga topshirish mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir o'quvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda o'quvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

Bahs-munozara metodining afzalliklari:

- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- o'quvchilar o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga harakat qiladilar;
- o'quvchilarda eshitish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Bahs-munozara metodining kamchiliklari:

- o'qituvchidan boshqarish mahoratini talab etadi;
- o'quvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

Davra suhbatlari metodi - o'quvchilar o'rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir. «Davra suhbatlari» metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir o'quvchining bir-biri bilan «ko'z aloqasi»ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida o'qituvchi mavzuni boshlab beradi va o'quvchilardan ushbu mavzu bo'yicha o'z fikr - mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir o'quvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan o'quvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir o'quvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir o'quvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va yonidagi o'quvchiga uzatadi. Konvertni olgan o'quvchi o'z javobini qog'ozga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi o'quvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

Davra suhbatlari metodining afzalliklari:

- o'tilgan materialni yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha o'quvchilar o'zaro muloqotda bo'ladilar;
- har bir o'quvchi o'zining ishtirok etish mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud.

Davra suhbatlari metodining kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- o'qituvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- o'quvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

Ishbop o'yinlari metodi - berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshharuvchilik harorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (tahlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi. O'yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya

qilish orqali beriladi. Bir tomondan o'yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'zgartirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli xarakterga ega. har bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha haror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. Ushbu shaxsiy vazifa bo'yicha maqsadga erishish butun guruh a'zolari erishgan natijalarga bog'liqdir. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

«Ishbop o'yin» metodining afzalliklari:

- o'quvchilarning bilimlarini va tajribalarini o'z harashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;
- o'quvchining boshlang'ich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- o'quvchilar o'z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.

«Ishbop o'yin» metodining kamchiliklari:

- o'qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- vaqt ko'p sarflanadi;
- tanlangan mavzu o'quvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;
- o'quvchining xis-hayajoni to'g'ri haror qabul qilishga xalaqit berishi mumkin.

Loyihalash metodi - bu o'quvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yi'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda o'quvchilar rejalashtirish, haror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhli bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda o'quvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning echimini topishdan iborat. O'quvchilar nuqtai- nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u o'quvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak. Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishi, o'quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak. O'qituvchi loyihalash metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi;

- loyiha ishini dars rejasiga kiritishi;

- topshiriqni o'quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi;

loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim. Loyihalash metodini nazariy bilimlarni berishda hamda o'quv amaliyoti darslarini o'tkazishda foydalanish mumkin.

«Loyihalash» metodining afzallik tomonlari:

- o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini oshishiga yordam beradi;
- mustaqil o'rganishning eng faol yo'li;
- o'quvchilarda hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi.

«Loyihalash» metodining kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab qiladi;
- tanlangan mavzu o'quvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi.

Muammoli vaziyat metodi - o'quvchilarga muammoli vaziyatlar-ni tahlil qilish va ularning echimini topishga asoslangan metoddir.

«Muammoli vaziyat» metodi uchun tanlagan topshiriqning murakkabligi o'quvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning echimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, o'quvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi.

«Muammoli vaziyat» metodining afzalliklari:

- o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- o'quvchilar sabab, farq va ta'sirlarni topishni o'rganadilar;
- o'quvchilarning bilim va tajribalarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- o'quvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

«Muammoli vaziyat» metodining kamchiliklari:

- o'quvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo o'quvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi.

Aqliy hujum metodi – g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy hujum» metodi biror muammoni echishda o'quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir.

Aqliy hujum metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida o'qituvchi tomonidan berilgan savolga o'quvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. o'quvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga o'quvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi.

«Aqliy hujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

Aqliy hujum metodidan foydalanilganda o'quvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan o'quvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. O'quvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi o'quvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

«Aqliy hujum» metodi o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. o'quvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda - yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda-mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

«Aqliy hujum» metodining tarkibiy tuzilmasi

«Aqliy hujum» metodining bosqichlari:

1. o'quvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. o'quvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. o'quvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;

5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

«Aqliy hujum» metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
3. Bildirilgan fikr-g'oyalarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin.

«Aqliy hujum» metodining afzallik tomonlari:

- natijalar baholanmasligi o'quvchilarni turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- o'quvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- o'quvchilarning boshlan?ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- o'quvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otish mumkin.

«Aqliy hujum» metodining kamchilik tomonlari:

- o'qituvchi tomonidan savolni to'g'ri g'o'ya olmaslik;
- o'qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

O'QUVCHILAR UCHUN ADABIYOTLAR

1. Informatika: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik, U.Yu.Yuldashev, R.R.Boqiyev, F.M.Zokirova. T.2002.-240 b.
2. Интернет портал www.google.uz
3. Интернет сайт www.referat.uz
4. S.V.Simonovich, Windows, Piter, 2002

O'QITUVCHILAR UCHUN ADABIYOTLAR

1. Informatika: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik, U.Yu.Yuldashev, R.R.Boqiyev, F.M.Zokirova. T.2002.-240 b.
2. www.so.cc.va.us/vccsonline/ — Virginia Community Colleges Schools.
3. www.dlcoursefinder.com — Distancion o'qitishning halkaro kurslari.
4. www.homeworkheaven.com — Uy vazifalari.
5. www.meditac.com/MedITAC/education — Курсы по телемедицине Центра MEDITAC (Medical Informatics and Technology Applications Consortium).
6. weblisr.ru/russian/Education/Distance_learning — Rossiya Distancion o'kitishiga bagishlangan sajt.
7. www.dist-edu.ru — Distancion o'qitishning Evroosio tizimi associaciyasi.
8. www.membrana.ru — Ilmiy-ommabop jurnal.
9. www.3dnews.ru — Kompyuter texnologiyalariga bagishlangan Rossiya onlayn nashri.
10. www.internet.uz — Uznetsning asosiy voqealarini yoritadigan manba.
11. www.internet.ru — Runetning asosiy voqealarini yoritadigan manba.
12. www.citforum.ru — Tahliliy ahborot dengizi.